



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil  
yanvar-sentabr*



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma’lumotlar

O‘zbekiston Respublikasida 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **35 821,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **549,7** ming kishiga yoki **1,6 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **18 234,7** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **50,9 %**), qishloq aholisi soni **17 586,3** ming kishi (**49,1 %**)ni tashkil etdi.

## Doimiy aholi soni

**35 821,0** *ming kishi*

## Tabiiy o‘shish

**+551,4** *ming kishi*


## Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi




Shahar

**50,9%**


Qishloq

**49,1%**Aholining tabiiy harakati, *ming kishi*

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar  
2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi




Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni  
2022- yil 1- oktabr holatiga



2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **31,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Doimiy aholi soni eng ko‘p bo‘lgan tuman va shaharlar, ming kishida


2022 yil 1- oktabr holatiga, ming kishi



2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, eng ko‘p doimiy aholi soni Namangan shahri **673,8** ming kishi, Samarqand shahri **570,4** ming kishi, Urgut tumani **541,7** ming kishi, Andijon shahri **465,7** ming kishi va Denov tumani **407,1** ming kishini tashkil etgan.

## Aholining o‘rtacha yoshi eng kichik bo‘lgan tuman va shaharlar


2022- yil 1-yanvar holatiga



2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, aholining o‘rtacha yoshi eng kichik bo‘lgan tuman va shaharlar Chiroqchi tumani **25,6 yosh**, Uzun tumani **26,0 yosh**, Urgut tumani **26,1 yosh**, Qo‘shrobdod tumani **26,5 yosh** va Baxmal tumani **26,5 yoshni** tashkil etgan.

## O‘zbekiston Respublikasining yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

2022- yil 1- yanvar holatiga




O‘zbekiston Respublikasida erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **11,5 % ni** tashkil etgan bo‘lsa, ayollar tarkibida ham eng yo‘qori ulush, ya’ni **10,8 % ni** 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar hissasiga to‘g‘ri kelgan.



## MDH davlatlarida yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

2022- yil 1- yanvar holatiga




MDH davlatlari doimiy aholisining jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, erkaklar tarkibida eng yo‘qori ulush 65 yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, 2022- yil 1- yanvar holatiga **9,8 %** ni, ayollar tarkibida esa **16,5 % ni** tashkil etgan.




### MDH davlatlarida aholi tarkibi

2022- yil 1- yanvar holatiga




**MDH davlatlari doimiy aholisini** mamlakatlar bo‘yicha taqsimlaganda asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi (**51,3 %**), Ukraina Respublikasi (**14,6 %**), O‘zbekiston Respublikasi (**11,9 %**), Qozog‘iston Respublikasi (jami **6,5 %**), Ozarbayjon Respublikasi (**3,5 %**), Belorus Respublikasi (**3,3 %**), Tojikiston Respublikasi (**3,2 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**2,3 %**), Turkmaniston Respublikasi (**1,5 %**) Armaniston Respublikasi (**1,0 %**) va Moldova Respublikasi (**0,9 %**) hissasiga to‘g‘ri kelgan.


**MDH davlatlarida yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni**
*2022- yil 1- yanvar holatiga*

**Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi**
*2022- yil 1- yanvar holatiga*

**71,7 yosh**

**75,8 yosh**


2022-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **73,8** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,7** yoshga, ayollar uchun esa **75,8** yoshga teng. Shahar va qishloq joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi bir xil, ya‘ni **73,8** yoshni tashkil etgan.

**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**
*2022- yil 1- oktabr holatiga*

**Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi**
*1- oktabr holatiga, ming kishi*

	2021- yil	2022- yil	O‘sish sur‘ati, % da
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>35 079,2</b>	<b>35 821,0</b>	<b>102,1</b>
<i>hududlar:</i>			
Samarqand	4 008,8	4 094,6	102,1
Farg‘ona	3 878,0	3 954,2	102,0
Qashqadaryo	3 389,1	3 461,4	102,1
Andijon	3 237,3	3 304,2	102,1
Namangan	2 914,2	2 979,3	102,2
Toshkent	2 925,5	2 977,0	101,8
Toshkent shahri*	2 840,4	2 934,1	103,3
Surxondaryo	2 726,3	2 789,3	102,3
Buxoro	1 968,3	2 000,3	101,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 939,5	1 970,6	101,6
Xorazm	1 914,5	1 947,1	101,7
Jizzax	1 435,1	1 466,6	102,2
Navoiy	1 028,4	1 050,1	102,1
Sirdaryo	873,8	892,2	102,1


*\*Toshkent shahri hududi Toshkent viloyati hududi hisobidan kengayishi natijasida aholi sonida sezilarli o‘zgarish bo‘lgan*




**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi**
*2022- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*


O‘zbekiston Respublikasida 2022- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **79,8** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,7** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **78,1** kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6549,4** kishi, Andijon viloyatida **768,4 kishi**, Farg‘ona viloyatida **584,9** kishi, Namangan viloyatida **400,4** kishi, Samarqand viloyatida **244,2** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,5** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **11,8** kishi, Buxoro viloyatida **49,7** kishi, Jizzax viloyatida **69,1** kishi, Qashqadaryo viloyatida **121,2** kishini tashkil etgan.


**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi dinamikasi**
*1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*


## QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




## Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi




## Tug‘ilganlarning taqsimlanishi, kishi ulushi


## Yanvar




## Fevral




## Mart




## Aprel




## May




## Iyun




## Iyul



## Avgust



## Sentabr




2022- yil yanvar-sentabr oylarida **681,8** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,6** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilda **25,8** promilleni tashkil etgan).

### Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr

3 nafar va undan ortiq egizak  
369 ta

2 nafar egizak  
14 434 ta



1 nafar  
666 957 ta

2022- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **97,8 %**
- 2 nafar – **2,1 %**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1 %**

### Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr

#### Otaning yoshi

5,8 %  
40 yosh va undan kattalar

83,1 %  
25-39 yoshdagilar

11,1 %  
25 yoshgacha




#### Onaning yoshi

1,0 %  
40 yosh va undan kattalar

59,6 %  
25-39 yoshdagilar


39,4 %  
25 yoshgacha



2022- yil yanvar-sentabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **11,1 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **83,1 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **5,8 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **39,4 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **59,6 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,0 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.


### Tug‘ilish koeffisienti eng yuqori bo‘lgan tuman va shaharlar

2022- yil yanvar-sentabr, promille



2022- yil yanvar-sentyabr oylarida tug‘ilish koeffisienti eng yuqori bo‘lgan tuman va shaharlar Guliston shahri **71,7** promille, Chiroqchi tumani **43,6** promille, Navoiy shahri **34,1** promille, Sergeli tumani **33,1** promille va Yangiyer shahri **33,0** promille tashkil etgan.

## VAFOT ETGANLAR



## Vafot etganlarning taqsimlanishi, kishi ulushi

**Yanvar**

Erkaklar	Ayollar
6 542 55,2%	5 306 44,8%



**Fevral**

Erkaklar	Ayollar
8 371 57,3%	6 241 42,7%



**Mart**

Erkaklar	Ayollar
7 707 55,2%	6 244 44,8%



**April**

Erkaklar	Ayollar
6 957 54,5%	5 805 45,5%



**May**

Erkaklar	Ayollar
7 061 55,0%	5 786 45,0%



**Iyun**

Erkaklar	Ayollar
8 073 54,5%	6 744 45,5%



**Iyul**

Erkaklar	Ayollar
9 419 54,5%	7 850 45,5%



**Avqust**

Erkaklar	Ayollar
10 414 55,5%	8 357 44,5%




**Sentabr**

Erkaklar	Ayollar
7 477 55,4%	6 012 44,6%



## Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **130,4** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etgan hamda bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,1** promille bo‘lgan).

## O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **56,8 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,2 %** i – o‘simtalardan, **9,8 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,6 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,0 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,5 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **14,1 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


## O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr




2022- yil yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **19,1 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **24,5 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **56,4 %** ni tashkil etgan.

## QAYD ETILGAN NIKOHLAR



## Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, birlik



## Nikohlarning taqsimlanishi

## Yanvar



## Fevral



## Mart



## Aprel



## May



## Iyun




## Iyul



## Avgust




## Sentabr




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **197,0** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,4** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,9** promille bo‘lgan).

## NIKOHDAN AJRALISHLAR




## Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, birlik



## Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

## Yanvar



## Fevral



## Mart




## Aprel




## May




## Iyun



## Iyul



## Avgust




## Sentabr



2022- yil yanvar-sentabr oylarida **36,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr



2022- yil yanvar-sentabr oylarida respublikada jami nikohdan ajrashganlarning **30,9 %** i farzandsiz, **45,8 %** i bitta farzand bilan va **23,3 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

2022- yil yanvar-sentabr




Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida erkaklar uchun **39,6** yoshni, ayollar uchun **33,4** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ajrimlarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohdan ajrashganlarning **50,5 %** ini tashkil etgan.

## Nikohdan ajralish koeffisienti eng kam bo‘lgan tuman va shaharlar

2022- yil yanvar-sentabr, promille

2022- yil yanvar-sentabr oylarida nikohdan ajralish koeffisienti eng kam bo‘lgan tuman va shaharlar Ko‘kdala tumani **0,3** promille, Dehqonobod tumani **0,4** promille, G‘ozg‘on shahri **0,4** promille, Koson tumani **0,6** promille va Urgut tumani **0,7** promille tashkil etgan.





## AHOLI MIGRATSIYASI


(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2022- yil yanvar-sentabr oylarida respublika bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **166 909** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko‘chib kelganlar **165 420** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlar **1489** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **168 571** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko‘chib ketganlar **165 420** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar **3 151** kishini tashkil etib, migratsiya saldosini minus **1 662** kishini tashkil etdi.











### O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

2022- yil yanvar-sentabr, kishi

	Ko‘chib kelganlar			Ko‘chib ketganlar		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		respublika-ning boshqa hududlaridan	xorijiy mamlakatlardan		respublika-ning boshqa hududlariga	xorijiy mamlakatlarga
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>166 909</b>	<b>165 420</b>	<b>1 489</b>	<b>168 571</b>	<b>165 420</b>	<b>3 151</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6 027	5 926	101	7 602	6 626	976
viloyatlar:						
Andijon	4 972	4 971	1	6 262	6 231	31
Buxoro	4 754	4 743	11	6 995	6 953	42
Jizzax	4 995	4 977	18	6 367	6 284	83
Qashqadaryo	7 252	7 243	9	12 704	12 677	27
Navoiy	6 842	6 807	35	7 058	6 899	159
Namangan	1 943	1 928	15	3 667	3 544	123
Samarqand	7 053	7 036	17	11 143	10 956	187
Surxondaryo	7 372	7 367	5	10 562	10 474	88
Sirdaryo	5 280	5 261	19	5 937	5 864	73
Toshkent	20 745	20 393	352	26 960	26 222	738
Farg‘ona	6 787	6 740	47	8 908	8 771	137
Xorazm	5 168	5 162	6	6 260	6 214	46
Toshkent sh.	77 719	76 866	853	48 146	47 705	441


**JAMI KO‘CHIB KELGANLAR**

**Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar-sentabr, kishi


**Ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi kishi ulushi**



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **166,9** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **6,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **1,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,8** promille bo‘lgan).

## JAMI KO‘CHIB KETGANLAR



## Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi




## Ko‘chib ketganlarning taqsimlanishi kishi ulushi


## Yanvar




## Fevral



## Mart




## Aprel




## May




## Iyun



## Iyul



## Avgust




## Sentabr



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **168,6** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **6,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **8,5** promille bo‘lgan).


## TASHQI MIGRATSIYA

Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar  
2022- yil yanvar-sentabr, kishi



### Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-sentabr



O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan (35,2 %), Rossiya Federatsiyasi (31,9 %), Tojikiston Respublikasi (7,3 %), Qirg‘iz Respublikasi (4,8 %), Turkmaniston Respublikasi (1,3 %) va boshqa mamlakatlar (19,5 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr



O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami **69,7 %**), Rossiya Federatsiyasi (**25,1 %**), Tojikiston Respublikasi (**0,9 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**0,9 %**), Turkmaniston Respublikasi (**0,6 %**) va boshqa mamlakatlar (**2,8 %**) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

### Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya‘ni me‘yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi**

*Tel: 71 202-80-65, 66*